

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

Qo'ny ishlari bo'yicha prorektor  
S.G'. Boboyev

2025 yil “ 4 ” iyul

Ro'yatga olindi: № BD-60810200-1.16

2025 yil “ 4 ” iyul

**O'SIMLIKSHUNOSLIK  
O'QUV DASTURI**

- Bilim sohasi:** 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
- Ta'lim sohasi:** 810000 - Qishloq xo'jaligi
- Ta'lim yo'nalishlari:** 60810200 - Agrokimyo va agrotuproqshunoslik

**Toshkent – 2025**

Fan/modul kodi O'SHB1306	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3	Kreditlar 6	
Fan/modul turi Tanlov fan	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
O'simlikshunoslik	72	108	180	
<p>2</p> <p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> - Dala ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishni ta'minlaydigan agrotexnikaviy usullar, agrotadbirlar va agrotexnologiya elementlarini ishlab chiqish uchun ekinlarning biologik xususiyatlari va unga asoslangan yetishtirish texnologiyasini chuqur o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Fanni o'zlashtirish orqali dala ekinlarining biologiyasi, shakllanish sharoiti, ekinlarning fotosintetik faoliyati, yetishtirish texnologiyasining tuproq-iqlim sharoitiga bog'liqligi, fan va texnika yutuqlarini xorijiy ilg'or texnologiyalari bilan bog'lash, mahalliy sharoitda qo'llash bo'yicha zarur bo'lgan bilimlarni o'rgataishdan iborat.</p> <p><b>Fanning asosiy vazifasi</b> - O'simlikshunoslikda o'tmishdosh ekinlarni to'g'ri tanlashni, yerni ekish uchun tayyorlashni, mineral o'g'itlarni ekinlar uchun to'g'ri taqsimlashni, qishloq xo'jalik mashinalaridan, gerbitsidlardan foydalanish, dala ekinlarini sug'orish usullari va me'yorini aniqlay bilish, tumanlashtirilgan navlar hosilini aniqlashni, yer maydoni, urug'lik, o'g'it, yadoximikatlarni, defoliant va desikantlar hisobi to'g'risida, yerni ekishga tayyorlash, ekish, qator oralariga ishlov berish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish, o'g'itlash, sug'orish, dalani terimga tayyorlash va hosilni yig'ishtirib olish, talabalarning amaliy faoliyatida olgan bilim, ko'nikmalarini kasbiy faoliyatida qo'llay olishiga erishish.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu: O'simlikshunoslik fanining maqsadi va vazifalari, dala ekinlarining umumiy tavsifi va guruhlari</b></p> <p>O'simlikshunoslik fanining maqsadi, vazifalari, fanga oid asosiy tushuncha va atamalar. Qishloq xo'jaligida dala ekinlarining ahamiyati, ularni guruhlarga bo'linishi. O'simliklarning kelib chiqish markazlari O'simlikshunoslik fanining shakllanish va rivojlanishining qisqacha tarixi.</p> <p><b>2-mavzu: Donli ekinlarning umumiy tavsifi. Bug'doy ahamiyati, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi</b></p> <p>Bug'doy. Iqtisodiy ahamiyati. Oqsil. Ekin tarixi. Tarqatish va dunyoda va Rossiya Federatsiyasida hosildorlik. Bug'doyning tasnifi. Morfologik xususiyatlar.</p>				

Kuzgi bug'doy. Rossiya Federatsiyasida tarqalishi va hosildorligi. Asosiy navlari. Ekologik xususiyatlari. Zamonaviy etishtirish texnologiyasi. Bahorgi bug'doy.

**3-mavzu: Makkajo'xori ahamiyati, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi**

Makkajo'xori ahamiyati, kelib chiqishi, tarixi, tarqalishi. Biologik xususiyatlari, navlari va duragaylari, rivojlanish davrlari. Don va silos tayyorlash uchun yetishtirish texnologiyasi oziqlantirish, ekish. Ekinlarni parvarishlash, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish, hosilni yig'ishtirib olish.

**4-mavzu: Sholi ahamiyati, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi.**

Sholini ahamiyati, kelib chiqishi, ekin maydoni, hosildorligi Biologik xususiyatlari va navlari. Yetishtirish texnologiyasi - o'tmishdosh, sholipoyalarning tuzilishi, sug'orish tizimi, oziqlantirish, ekinlarni parvarishlash, kasallik va zararkunandalar bilan kurashish, ko'chat qilib yetishtirish va hosilni yig'ish.

**5-mavzu: Don-dukkakli ekinlarning umumiy tavsifi. No'xat ahamiyati, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi**

Don-dukkakli ekinlarining umumiy tavsifi va guruhlari. No'xatni ahamiyati, tarixi, tarqalishi, hosildorligi, biologiyasi va navlari. Yetishtirish texnologiyasi o'tmishdosh, ekish, ekinni parvarishlash, sug'orish tizimi, oziqlantirish, kasallik va zararkunandalar bilan kurashish, hosilni yig'ish.

**6-mavzu: Soya va loviya ahamiyati, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi**

Soya va loviya ahamiyati, tarixi, tarqalishi, hosildorligi, biologiyasi va navlari. Yetishtirish texnologiyasi o'tmishdosh, ekish, ekinni parvarishlash, sug'orish tizimi, kasallik va zararkunandalar bilan kurashish oziqlantirish, hosilni yig'ish.

**7-mavzu: Yem-xashak o'tlar tavsifi. Sudan o'ti va beda biologiyasi, yetishtirish texnologiyasi**

Yem-xashak o'tlar tavsifi. Qo'ng'irboshli yem-xashak o'tlarning ahamiyati, tarkibi, to'yimliliigi. Sudan o'ti ahamiyati, tarqalishi, hosildorligi, biologik xususiyati. Sug'oriladigan yerlarda yetishtirish texnologiyasi: Yekish, ekinni parvarishlash, sug'orish tizimi, kasallik va zararkunandalar bilan kurashish, hosilni yig'ish.

Dukkakli yem-xashak o'tlarning ahamiyati, tarkibi, to'yimliliigi. Bedani ahamiyati, tarqalishi, hosildorligi, biologik xususiyati, navlari. Sug'oriladigan yerlarda yetishtirish texnologiyasi: Ekish, ekinni parvarishlash, sug'orish tizimi, kasallik va zararkunandalar bilan kurashish, hosilni yig'ish.

**8-mavzu: Tuganakmevali ekinlarning ahamiyati. Kartoshka biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi**

Tuganakmevali ekinlar ahamiyati. Kartoshkani ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, ekin maydoni, hosildorligi. Kartoshkaning aynishi. Zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash choralarini. Yetishtirish agrotexnikasi - sug'orish tizimi, oziqlantirish, ekinlarni parvarishlash va tuganak hosilini yig'ish.

**9-mavzu: Ildizmevali ekinlarning ahamiyati. Qand lavlagi biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi**

Ildizmevali ekinlar ahamiyati. Qand lavlagini ahamiyati, biologiyasi, Qand lavlagi urug'chiligi. Yetishtirish texnologiyasi o'tmishdoshi, ekish, ekinni parvarishlash, begona o'tlar va kasalliklar hamda zararkunandalarga qarshi kurashish, ildizmeva hosilni yig'ish

**10-mavzu: Moyli ekinlarning umumiy tavsifi. Kungaboqar ahamiyati, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi**

Moyli ekinlarni xalq xo'jaligidagi ahamiyati, umumiy tavsifi, tarkibi, sifat ko'rsatkichlari. Kungaboqarni ahamiyati, tarqalishi, biologiyasi, hosildorligi. Urug' va silos tayyorlash uchun yetishtirish texnologiyasi.

**11-mavzu: Tolali ekinlar ahamiyati. Kanop biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi**

Lub tolali ekinlar ahamiyati, tarkibi, hosildorligi. Kanop ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, biologiyasi, navlari. Yetishtirish texnologiyasi: sug'orish tizimi, oziqlantirish, ekish, ekinlarni parvarishlash kasallik, zararkundalar bilan kurashish va hosilini yig'ish.

**12-mavzu: G'o'zaning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi**

Respublikamizni jahondagi paxtachilik bo'yicha tutgan o'mi. G'o'zaning ahamiyati, kelib chiqishi va yer yuzasida tarqalishi tarixi. g'o'zaning botanik klassifikatsiyasi. Paxtachilikda almashlab ekish, yerga asosiy ishlov berish tizimi. Yerga mineral o'g'itlar solish. Chigitni ekishga tayyorlash va ekish. Ekish muddatlari. Ekish usullari. Chigitni pushtaga ekish, ekish me'yori, chigit ekish chuqurligi. G'o'zani yagonalash muddatlari va ularning ahamiyati. G'o'za qator oralarini ishlash muddatlari. Egat olish va o'g'it texnikasi. Paxta dalalarida begona o'tlarga qarshi kurashish choralarini. Gerbitsid seppish hamda sug'orish me'yori, muddati va usullari.

Mineral o'g'itlar (azotli, fosforli, kaliyli, murakkab o'g'itlar). Mikro o'g'itlar, maxalliy o'g'itlar, ko'kat o'g'itlar, bakterial o'g'itlardan foydalanishda ingibitorlarni qo'llash). Terim oldidan hosilni aniqlash va dalani paxta terimiga tayyorlash. Defoliatsiya va desikatsiya o'tkazish-Dalani mashina terimiga tayyorlash. Hosilni mashinada va qo'lda terish. (soni va muddatlari). Mashinada ko'rak terish, to'kilgan paxtani mashinada terish va tozalash.

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Donli ekinlarning umumiy morfologiyasi
2. Bug'doy - turlari, morfologiyasi
3. Arpa va suli sistematikasi va morfologiyasi
4. Makkajo'xori sistematikasi va morfologiyasi
5. Jo'xori sistematikasi va morfologiyasi
6. Sholi - sistematikasi, morfologik belgilari
7. Tariq va marjumak sistematikasi, morfologiyasi
8. No'xat va ko'k no'xat - sistematikasi, morfologiyasi
9. Soya va loviya sistematikasi, morfologiyasi
10. Yasmiq va burchoq sistematikasi, morfologiyasi
11. Qo'ng'irboshli yem-xashak o'tlar turlari. Sudan o'ti morfologiyasi
12. Dukkakli yem-xashak o'tlar turlari. Bada - sistematikasi, morfologiyasi
13. Kartoshka sistematikasi va morfologiyasi
14. Topinambur va batat sistematikasi, morfologiyasi
15. Qand lavlagi sistematikasi va morfologiyasi

16. Moyli ekinlar guruhlari. Kungaboqar sistematikasi va morfologiyasi
17. Yeryong'oq va kunjut sistematikasi, morfologiyasi
18. Tolali ekinlar guruhlari. Kanop sistematikasi va morfologiyasi
19. Tamaki va moxorka sistematikasi, morfologik xususiyatlari
20. G'o'za ildizi, shoxlari va shoxlanish tiplari
21. G'o'zada gullash va hosil organlarining to'kilish qonuniyati
22. G'o'za ko'sagi, chigit va tolaning tuzilishi
23. Nazariy va haqiqiy ko'chat qalinligini aniqlash
24. G'o'zani o'g'itlash muddatlari va me'yorlarini aniqlash

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhda bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. O'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, hosili va uning sifatiga ta'sir qiladigan omillar.
2. Dala ekinlarini o'g'itlash tizimining biologik asoslari
3. Biologik azot tushunchasi, dukkakli ekinlarning simbiotik faoliyati
4. Arpa biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
5. Suli biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
6. Javdar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
7. Tritikale biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
8. Jo'xori biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
9. Tariq biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
10. Marjumak biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
11. Ko'k no'xat biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
12. Yasmiq biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
13. Burchoq biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
14. Mastak biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
15. Qizil sebarga biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
16. Topinambur va batat biologiyasi, yetishtirish texnologiyasi
17. Xashaki lavlagi biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
18. Yeryong'oq biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
19. Kunjut biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
20. Maxsar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
21. Moyli zig'ir biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
22. Raps biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
23. Jut biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
24. Tolali zig'ir biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
25. Tamaki biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
26. Javdar sistematikasi va morfologiyasi
27. Mastak turlari va morfologiyasi
28. Qizil sebarga va bargak sistematikasi, morfologiyasi
29. Xashaki lavlagi sistematikasi va morfologiyasi
30. Xashaki sabzi va xashaki sholg'om sistematikasi, morfologiyasi

31. Maxsar va moyli zig'ir sistematikasi va morfologiyasi
  32. Kanakunjut va raps sistematikasi va morfologiyasi
  33. Zira va arpabodiyon sistematikasi va morfologiyasi
  34. Kashnich va ukrop sistematikasi, morfologiyasi
  35. Jut va tolali zig'ir sistematikasi, morfologiyasi
  36. Hozirgi vaqtda paxta yetishtirishda qo'llaniladigan o'g'it turlari
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

### 3 V. Ta'lim natijalari / Shakllanadigan kompetensi:

#### Talaba bilishi kerak:

Dala ekinlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati, dunyo va respublikamizda yetishtirishning bugungi kun holati va istiqbollari, dala ekinlari biologiyasining shakllanish sharoiti, o'simliklarning kelib chiqish markazlari, ekinlarning oila, avlod, tur va turxillari hamda ularning farqli xususiyatlari, hosilga ta'sir etuvchi omillar, biologiyasi (o'sish va rivojlanish xususiyatlari), tashqi muhit omillariga (harorat, namlik, yorug'lik, tuproq va oziqa elementlariga) talabi, fotosintetik faoliyati, hosil elementlarining shakllanish jarayoni, mahsuldorlik va hosildorlik ko'rsatkichlari, rayonlashtirilgan navlari va ularning tavsifi, ekin turlari bo'yicha yetishtirish texnologiyasi elementlari va ularning farqlanishi, ekinlarni intensiv yetishtirish usullari, o'simlikshunoslik sohasidagi ilm-fan yutuqlari, zamonaviy texnika va texnologiyalar bo'yicha *tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)*

Dala ekinlari turlari bo'yicha rejalashtirilgan hosilga urug' ekish me'yori, mineral o'g'itlar me'yorini, maydon birligi hisobiga gerbitsidlar, biologik va kimyoviy preparatlar, defoliant va desikantlar miqdorini aniqlash hamda ekinlarning holatiga qarab o'sish-rivojlanishini yaxshilash bo'yicha kerakli chora-tadbirlarni qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; Hududlarning tuproq-iqlim sharoiti, ishlab chiqarish maqsadi va yo'nalishlaridan kelib chiqib, ekin turi va navlarini to'g'ri tanlay olish, yer maydonini rejalashtirish, sifatli urug'likni saralash, ekish, o'g'itlash va sug'orishning maqbul muddati, me'yori, usullarini belgilay olish, tegishli qishloq xo'jaligi mashina va agregatlarini *bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)*

O'tmishdosh ekinlarni to'g'ri tanlash, yemi va urug'ni ekishga tayyorlash, ekish, parvarishlash, dalani hosil yig'ishtirishga tayyorlash va hosilni yig'ishtirib olish, saqlash va dastlabki ishlov berish hamda ushbu tadbirlarni samarali tashkil etish va sifatli amalga oshirish hamda ishlab chiqarish jarayonida sohadagi zamonaviy ilg'or tajribalardan foydalana olish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

#### 4 VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys - stadilar;
- amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;
- blis-so'rov;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

#### 5 VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil

mushohada yuritish va nazoratga berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

#### Asosiy adabiyotlar

1. Atabayeva X.N., Xudaykulov J.B. O'simlikshunoslik. Darslik. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2018. -407 b.
2. Atabayeva X.N., Qodirxo'jayev O. O'simlikshunoslik. Darslik. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2006. -180 b.
3. Atabaeva Kh.N., Xudaykulov J.B., Nurbekov A.I., Kassam A. Plant Science. Textbook. Tashkent, "Fan ziyosi", 2021 y. -398 b.
4. Атабаева Х.Н., Умарова Н.С. Растениеводство. Учебник. Ташкент, "Инновация-Зиё", 2022. -516 с.
5. Атабаева Х.Н., Умарова Н.С. Растениеводство. Учебник. Ташкент, ТашГАУ "Тахририят-нашриёт", 2015. -380 с.
6. Орипов Р., Халилов Н. O'simlikshunoslik. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2006. -420 b.
7. Умарова Н.С. Растениеводство. Учебное пособие. Ташкент, "Инновация-Зиё", 2023. -280 с.
8. Margaret J. McMahon, Anton M. Kofranek, Vinsent E. Rubatzky. Plant science: growth, development and utilization of cultivated plants. Fifth edition. NJ, USA. "Copyright", 2011. -415 p.

#### Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarraqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Toshkent, 2022 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni. Toshkent, 2019 yil.
3. Mirzaev O. Yem-xashak yetishtirish. Darslik. T.: Yangi nashr.2014.-384.b.
4. Oriпов R., Xalilov N. - O'simlikshunoslik. O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007 yil. 384 b.
5. Teshayev Sh. Sulaymanov B. va boshq. Paxtachilik ma'lumotnomasi. "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent 2016. 540 b.
6. Yakubjonov O., Tursunov S., Muqimov Z. -Donchilik. Darslik. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2009.
7. Johann Vollman, Istvan Rajcan. Oil Crops. London. New York. "Springer Science+Business Media, LLC", 2009.-548 p.
8. Elektron darsliklar, ilmiy monografiyalar, maqolalar, doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari, ilmiy - amaliy anjumanlar, ma'ruzalar to'plamlari, gazeta va jurnallar, statistik ma'lumotlar to'plamlari, ma'ruza matnlarining elektron versiyasi.

#### Axborot manbalari

1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali
2. https://lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
3. https://www.agro.uz/charts/ - Statistika ma'lumotlari

**0-QUV DASTURLARNI TOP-300 TALIK REYTINGGA KIRGAN  
UNIVERSITETLAR TARIBASIDA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HOLATI**

4	<a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a> - jamoat ta'lim portal
5	<a href="https://biobee-honey.com/sunflower-honey.html">https://biobee-honey.com/sunflower-honey.html</a>
6	<a href="http://www.beefolks.com/products/c83-cotton-honey/">http://www.beefolks.com/products/c83-cotton-honey/</a>
7	<a href="https://soil.msu.ru/attachments/article/4505/%D0%698%D0%916%D0%B2%D0%B0%D1%81%D1%82%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D0%B5%D0%B2%D0%BE%D0%B4%D1%81%D1%82%D0%B2%D0%BE%D0%203++.pdf">https://soil.msu.ru/attachments/article/4505/%D0%698%D0%916%D0%B2%D0%B0%D1%81%D1%82%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D0%B5%D0%B2%D0%BE%D0%B4%D1%81%D1%82%D0%B2%D0%BE%D0%203++.pdf</a>
8	<a href="https://agronomy.ifas.ufl.edu/media/agronomyifasufledu/documents/AGR-4214C---Applied-Field-Crop-Production---MacDonald.pdf">https://agronomy.ifas.ufl.edu/media/agronomyifasufledu/documents/AGR-4214C---Applied-Field-Crop-Production---MacDonald.pdf</a>
9	<a href="https://guide.wisc.edu/courses/plantsci/">https://guide.wisc.edu/courses/plantsci/</a>
7	Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat agrar universitet Kengashining 2025 yil 04 07 dagi 13-sonli bay'omnoma bilan ma'qullangan.
8	<b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b> S.S.Tog'ayeva – O'simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrasida dotsent, q.x.f.f.d. A.A.Qurbonov – O'simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrasida dotsent, q.x.f.f.d. S.Xaytullayev – O'simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrasida assistent, q.x.f.f.d.
9	<b>Taqdirchilar:</b> Xalilov N. – SamDVMCHBU, O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish kafedrasida mudiri, q.x.f.d., professor Yuldasheva Z.K. – TDAU, O'simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrasida professori, q.x.f.d., professor

No	OTM nomi	OS	THE	TOP-300 ta'lim dasturi asosida kiritilgan qo'shimcha mavzular	Mazkur dasturdagi mavzu nomi	Havolalar
1	Россия Федерация Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова	105	107	Тема 1. Зерновые хлеба Тема 2. Зерновые хлеба 2 группы. Кукуруза. Тема 3. Крупяные культуры.	2-мavzu: ekimning umumiy Bag' do'y almashuv, biologiya va yetishtirish texnologiyasi 3-мavzu: yetishtirish texnologiyasi 4-мavzu: Sholi almashuv, biologiya va yetishtirish texnologiyasi	<a href="https://soil.msu.ru/attachments/article/4505/%D0%698%D0%916%D0%B2%D0%B0%D1%81%D1%82%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D0%B5%D0%B2%D0%BE%D0%B4%D1%81%D1%82%D0%B2%D0%BE%D0%203++.pdf">https://soil.msu.ru/attachments/article/4505/%D0%698%D0%916%D0%B2%D0%B0%D1%81%D1%82%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D0%B5%D0%B2%D0%BE%D0%B4%D1%81%D1%82%D0%B2%D0%BE%D0%203++.pdf</a>
2	University of Florida AOSH	212	130	Crops – Soybean (Soya o'simligi) Crops – Cotton (Paxta o'simligi)	6-мavzu: Soya va loviya almashuv, biologiya va yetishtirish texnologiyasi 12-мavzu: G'o'zning xalq xo'jaligida ahamiyati, biologiya va yetishtirish texnologiyasi	<a href="https://agronomy.ifas.ufl.edu/media/agronomyifasufledu/documents/AGR-4214C---Applied-Field-Crop-Production---MacDonald.pdf">https://agronomy.ifas.ufl.edu/media/agronomyifasufledu/documents/AGR-4214C---Applied-Field-Crop-Production---MacDonald.pdf</a>
3	University of Wisconsin-Madison	116	56	Establishment, management, harvesting and utilization of forage crops for use as hay, pasture and silage. Emphasis on cool season perennial grasses and legumes.	7-мavzu: Yem-xashak o'tlar ravsh. Sildar o'ti va boda biologiya, yetishtirish texnologiyasi	<a href="https://guide.wisc.edu/courses/plantsci/">https://guide.wisc.edu/courses/plantsci/</a>